


## NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 595,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,2 % ni tashkil etdi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati, jahonning 62 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Kanada (18,6 %), Rossiya Federatsiyasida (16,3 %), Xitoy Xalq Respublikasida (14,0 %), AQShda (11,8 %) va Litvada (8,3 %) qayd etilgan.



**NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI  
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR  
(2021- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Kanada	110,7	107,5	3,2	18,6
Rossiya Federatsiyasi	97,0	15,8	81,2	16,3
Xitoy Xalq Respublikasi	83,2	34,7	48,5	14,0
AQSh	70,1	0,7	69,4	11,8
Litva	49,3	6,2	43,1	8,3
Turkiya	36,9	17,8	19,1	6,2
Qozog'iston	29,9	7,4	22,5	5,0
Yaponiya	15,2	-	15,2	2,6
Koreya Respublikasi	15,2	0,1	15,1	2,5
Chexiya Respublikasi	14,2	0,2	14,0	2,4

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Afg'oniston, Turkmaniston va Qirg'iz Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Kanada, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSh, Litva, Turkiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Chexiya Respublikasi hissasiga to'g'ri kelgan.

**NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI**  
*(2021- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)*

	<b>Jami</b>	<b>2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>595,2</b>	<b>112,2</b>	<b>100,0</b>
MDH davlatlari	153,8	104,6	25,8
Boshqa davlatlar	441,4	115,2	74,2



**NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO'YICHA  
TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI  
(2021- yil yanvar-iyun, ming AQSh dollari)**

<b>Tuman va shahar nomi</b>	<b>Tashqi savdo aylanmasi hajmi</b>	<b>2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>595 165,9</b>	<b>112,2</b>
Navoiy sh.	385 926,2	113,5
Zarafshon sh.	8 227,7	150,9
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	134 750,8	131,2
Konimex	998,8	36,4
Qiziltepa	10 837,0	48,3
Navbahor	14 296,3	66,1
Nurota	6 812,0	89,7
Tomdi	3 521,0	9,3 b.
Uchquduq	3 152,1	2,3 b.
Xatirchi	21 245,4	2,5 b.
Bo'linmaydigan hajm	5 398,6	-

2021- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasi hajmi 595,2 mln. AQSh dollarini 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,2 % ni tashkil qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Kanada (104,3 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (4,0 mln. AQSh dollari), Singapur (3,2 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (2,5 mln. AQSh dollari) va Turkmaniston (2,1 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN  
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Kanada</b>	<b>0,2</b>	<b>44,3</b>	<b>110,7</b>
Eksport	0,1	44,3	107,5
Import	0,1	-	3,2
Saldo	0,0	44,3	104,3
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>84,5</b>	<b>73,6</b>	<b>97,0</b>
Eksport	19,3	19,3	15,8
Import	65,2	54,3	81,2
Saldo	-45,9	-35,0	-65,4
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>165,3</b>	<b>72,5</b>	<b>83,2</b>
Eksport	46,4	14,2	34,7
Import	118,9	58,3	48,5
Saldo	-72,5	-44,1	-13,8
<b>AQSh</b>	<b>18,4</b>	<b>27,1</b>	<b>70,1</b>
Eksport	0,1	0,1	0,7
Import	18,3	27,0	69,4
Saldo	-18,2	-26,9	-68,7
<b>Litva</b>	<b>7,6</b>	<b>40,3</b>	<b>49,3</b>
Eksport	2,7	2,2	6,2
Import	4,9	38,1	43,1
Saldo	-2,2	-35,9	-36,9
<b>Turkiya</b>	<b>58,0</b>	<b>29,3</b>	<b>36,9</b>
Eksport	8,9	14,1	17,8
Import	49,1	15,2	19,1
Saldo	-40,2	-1,1	-1,3
<b>Qozog'iston</b>	<b>32,2</b>	<b>26,8</b>	<b>29,9</b>
Eksport	4,5	3,0	7,4
Import	27,7	23,8	22,5
Saldo	-23,2	-20,8	-15,1


Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Yaponiya</b>	<b>41,5</b>	<b>3,2</b>	<b>15,2</b>
Eksport	4,4	0,2	-
Import	37,1	3,0	15,2
Saldo	-32,7	-2,8	-15,2
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>23,7</b>	<b>36,1</b>	<b>15,2</b>
Eksport	0,1	-	0,1
Import	23,6	36,1	15,1
Saldo	-23,5	-36,1	-15,0
<b>Chexiya Respublikasi</b>	<b>6,4</b>	<b>5,1</b>	<b>14,2</b>
Eksport	1,1	0,1	0,2
Import	5,3	5,0	14,0
Saldo	-4,2	-4,9	-13,8
<b>Ukraina</b>	<b>1,4</b>	<b>10,6</b>	<b>13,0</b>
Eksport	0,9	1,2	0,7
Import	0,5	9,4	12,3
Saldo	0,4	-8,2	-11,6
<b>Germaniya</b>	<b>77,4</b>	<b>14,6</b>	<b>8,3</b>
Eksport	0,5	0,2	-
Import	76,9	14,4	8,3
Saldo	-76,4	-14,2	-8,3
<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>76,7</b>	<b>0,6</b>	<b>5,9</b>
Eksport	0,3	0,3	0,9
Import	76,4	0,3	5,0
Saldo	-76,1	0,0	-4,1
<b>Italiya</b>	<b>11,7</b>	<b>3,0</b>	<b>5,8</b>
Eksport	-	-	-
Import	11,7	3,0	5,8
Saldo	-11,7	-3,0	-5,8

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>2,8</b>	<b>1,6</b>	<b>4,9</b>
Eksport	1,8	-	0,5
Import	1,0	1,6	4,4
Saldo	0,8	-1,6	-3,9
<b>Afg'oniston</b>	<b>0,4</b>	<b>0,3</b>	<b>4,0</b>
Eksport	0,4	0,3	4,0
Import	-	-	-
Saldo	0,4	0,3	4,0
<b>Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya</b>	<b>2,0</b>	<b>1,7</b>	<b>4,0</b>
Eksport	-	0,2	-
Import	2,0	1,5	4,0
Saldo	-2,0	-1,3	-4,0
<b>Turkmaniston</b>	<b>4,0</b>	<b>10,6</b>	<b>3,9</b>
Eksport	2,0	10,2	3,0
Import	2,0	0,4	0,9
Saldo	0,0	9,8	2,1
<b>Singapur</b>	<b>0,6</b>	<b>2,0</b>	<b>3,2</b>
Eksport	0,5	1,8	3,2
Import	0,1	0,2	-
Saldo	0,4	1,6	3,2
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>11,6</b>	<b>24,1</b>	<b>3,1</b>
Eksport	11,3	23,9	2,8
Import	0,3	0,2	0,3
Saldo	11,0	23,7	2,5

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-iyun oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 25,8 % ni tashkil etdi.



**NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-iyun oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 115,2 % ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 74,2 % ni tashkil etdi.




## NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyun)

Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi 209,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,4 % ni tashkil etdi.

Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (64,6 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (21,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,1 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.



### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 5,1 %
- Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari - 2,3 %
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 0,6 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 64,6 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 21,6 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari - 0,2 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 3,2 %
- Xizmatlar - 2,4 %




**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI**  
(2021- yil yanvar-iyun)

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami eksport</b>	<b>209,4</b>	<b>96,4</b>	<b>100,0</b>	<b>31,5</b>	<b>53,8</b>	<b>100,0</b>	<b>177,9</b>	<b>112,1</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	10,6	183,3	5,1	5,2	106,1	16,6	5,4	6,3 b.	3,0
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	4,8	27,8	2,3	3,2	19,9	10,2	1,6	130,0	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,3	179,7	0,6	-	-	-	1,3	183,7	0,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	135,2	92,2	64,6	1,2	11,6	3,8	134,0	98,2	75,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	45,2	140,0	21,6	13,6	78,2	43,3	31,6	2,1 b.	17,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,5	23,4	0,2	0,1	55,4	0,3	0,4	20,3	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	6,8	71,8	3,2	6,7	73,0	21,1	0,1	32,2	0,1
Xizmatlar	5,0	158,2	2,4	1,5	2,5 b.	4,7	3,5	136,5	2,0

2021- yilning yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2020- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, xizmatlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.



**NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-iyun oylarida eksport hajmi 209,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyun, % da)

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,9	2,7	5,1
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	6,0	8,0	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,1	0,3	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	65,1	67,5	64,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	12,1	14,9	21,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	3,4	0,9	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	0,4	4,3	3,2
Xizmatlar	3,0	1,4	2,4

2021- yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi 9,5 punktga oshib, 21,6 % ni, turli xil tayyor buyumlar 2,8 punktga oshib, 3,2 % ni tashkil etdi.



**NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO'YICHA EKSPORT HAJMI**  
(2021- yil yanvar-iyun, ming AQSh dollari)

Tuman va shahar nomi	Eksport hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>209 352,6</b>	<b>96,4</b>
Navoiy sh.	150 296,5	94,9
Zarafshon sh.	2 094,4	143,5
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	18 651,2	119,6
Konimex	154,3	16,8
Qiziltepa	6 317,2	37,7
Navbahor	10 144,4	78,3
Nurota	2 314,3	168,4
Tomdi	615,1	167,1
Uchquduq	954,5	101,1
Xatirchi	16 969,9	3,0 b.
Bo'linmaydigan hajm	840,8	-

2021- yil yanvar-iyun oylarida eksport hajmi 209,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 96,4 % kuzatildi.




**NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMI**  
(2021- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Eksport hajmi</b>	<b>209,4</b>	<b>96,4</b>	<b>100,0</b>
MDH davlatlari	31,5	53,8	15,0
Boshqa davlatlar	177,9	112,1	85,0




**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan eksport ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich 15,0 va 85,0 % ni tashkil etdi.



**NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**  
(2021- yil yanvar-iyun, % da)



2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining 51,3 %), Xitoy Xalq Respublikasi (16,6 %), Turkiya (8,5 %), Rossiya Federatsiyasi (7,5 %), Qozog'iston (3,5 %), Litva (3,0 %) va Afg'oniston (1,9 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 92,3 % ni tashkil etmoqda.



Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi bir pog'onaga tushishi hisobiga, Kanada eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni 32 tani tashkil etdi.



**NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA  
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI  
(yanvar-iyun)**

Davlatlar	Ming AQSh dollari		2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan, % da	O'рни
	2020- y.	2021- y.		
Kanada	44 343,7	107 477,6	2,4 b.	1
Xitoy Xalq Respublikasi	14 208,9	34 713,7	2,4 b.	2
Turkiya	14 122,9	17 831,7	126,3	3
Rossiya Federatsiyasi	19 307,4	15 766,5	81,7	4
Qozog'iston	2 997,2	7 418,9	2,5 b.	5
Litva	2 177,8	6 216,5	2,9 b.	6
Afg'oniston	349,5	3 984,7	11,4 b.	7
Singapur	1 822,0	3 191,8	175,2	8
Turkmaniston	10 161,9	2 972,7	29,3	9
Qirg'iz Respublikasi	23 919,9	2 771,2	11,6	10
Belarus Respublikasi	300,6	911,0	3,0 b.	11
BAA	570,5	866,0	151,8	12
Tojikiston	334,3	847,4	2,5 b.	13
Pokiston	72,0	679,8	9,4 b.	14
AQSh	75,6	657,2	8,7 b.	15
Eron Islom Respublikasi	-	526,1	-	16
Chexiya Respublikasi	72,8	195,4	2,7 b.	17
Vetnam	-	175,1	-	18
Niderlandiya	-	143,6	-	19
Polsha	428,0	128,9	30,1	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.



**NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI  
(2021- yil yanvar-iyun, mln AQSh dollari)**

	Kanada		Xitoy Xalq Respublikasi		Turkiya		Rossiya Federatsiyasi	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Jami eksport</b>	<b>44,3</b>	<b>107,5</b>	<b>14,2</b>	<b>34,7</b>	<b>14,1</b>	<b>17,8</b>	<b>19,3</b>	<b>15,8</b>


shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	0,1	0,1	-	-	2,4	0,7
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	0,6	0,1	0,5	1,1	5,3	0,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	0,1	-	0,4	1,1	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	44,1	106,6	9,1	27,4	5,0	-	-	-
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	0,2	0,9	2,8	7,0	6,8	13,6	10,4	8,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	-	1,5	0,1	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	0,1	-	0,6	4,7
Xizmatlar	-	-	-	-	1,3	2,0	0,6	1,4





**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**  
(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 5,0 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,4 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 158,2 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (83,9 %), safarlar (turizm xizmatlari) (9,9 %), moliyaviy xizmatlar (5,3 %), va boshqa xizmatlar (0,9 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**  
(2021- yil yanvar-iyun, ming AQSh dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 6 055,5 ming AQSh dollar qiymatli 9 542,1 tonnadan ortiq meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,4 % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida 2,9 % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida 2 264,9 ming AQSh dollarini, Xatirchi tumanida 1 329,5 ming AQSh dollarini, Karmana tumanida 1 015,4 ming AQSh dollarini, Navbahor tumanida 615,0 ming AQSh dollarini va Zarafshon shahrida 256,3 ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (52,0 %), Pokiston (11,2 %), Qirg'iz Respublikasi (8,4 %) va Belarus Respublikasi (8,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI**  
(yanvar-iyun)

Davlatlar	2020- yil			2021- yil		
	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi *, % da	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi*, % da
Qozog'iston	1 215,7	640,0	11,9	6 510,3	3 152,6	52,0
Pokiston	48,0	72,0	1,3	169,9	679,5	11,2
Qirg'iz Respublikasi	1 081,0	1 498,6	27,8	380,6	511,1	8,4
Belarus Respublikasi	609,8	300,1	5,6	894,2	499,9	8,2
Eron Islom Respublikasi	-	-	-	460,0	464,0	7,7
Rossiya Federatsiyasi	3 552,6	2 302,8	42,7	174,4	254,1	4,2
Afg'oniston	521,8	118,2	2,2	273,7	216,9	3,6
Xitoy Xalq Respublikasi	51,2	50,4	0,9	128,0	119,5	2,0
Iroq	235,2	181,2	3,4	66,9	57,9	1,0
Latviya	86,0	11,6	0,2	220,8	36,2	0,6
Ukraina	59,6	32,8	0,6	51,9	31,6	0,5
Estoniya	108,0	20,2	0,4	190,7	29,0	0,5
Litva	-	-	-	20,7	3,2	0,1
Boshqa davlatlar	117,9	161,8	3,0	-	-	-

\*-qiymat ifodasida


## NAVOIY VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-iyun)

2021- yil yanvar-iyun oylarida import hajmi 385,8 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 123,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (59,1 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (14,3 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (9,2 %) ga to'g'ri keldi.



### XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 3,2 %
- Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari - 0,6 %
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 0,1 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 9,2 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 14,3 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari - 59,1 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 8,5 %
- Xizmatlar - 5,0 %

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi 366,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 19,4 mln. AQSh dollariga yetdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI**  
(2021- yil yanvar-iyun)


XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami import</b>	<b>385,8</b>	<b>123,3</b>	<b>100,0</b>	<b>122,3</b>	<b>138,2</b>	<b>100,0</b>	<b>263,5</b>	<b>117,4</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12,5	3,0 b.	3,2	10,8	4,1 b.	8,8	1,7	107,4	0,6
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	2,3	126,1	0,6	1,1	2,2 b.	0,9	1,2	90,5	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,3	151,2	0,1	0,1	188,0	0,1	0,2	132,6	0,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	35,4	86,9	9,2	7,1	74,3	5,8	28,3	90,8	10,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	55,0	126,2	14,3	45,2	184,8	37,0	9,8	51,2	3,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	228,0	119,5	59,1	28,1	74,3	23,0	199,9	130,7	75,9
Turli xil tayyor buyumlar	32,9	163,2	8,5	27,3	2,6 b.	22,3	5,6	57,7	2,1
Xizmatlar	19,4	169,9	5,0	2,6	87,0	2,1	16,8	199,2	6,4

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (59,1 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (14,3 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar (9,2 %), shuningdek MDH mamlakatlarida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (37,0 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (23,0 %) ga toʻgʻri keldi, boshqa xorijiy mamlakatlarga ham eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (75,9 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar (10,7 %) hissasiga toʻgʻri keladi.

Joriy davrda import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni koʻrsatdiki, 2020- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,0 b. %), xizmatlar (69,9 %), turli xil tayyor buyumlar (63,2 %), mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar (51,2 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (26,2 %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilgʻidan tashqari (26,1 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (19,5 %) oʻsgan.



**NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-iyun oylarida import hajmi 385,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyun, ulush, % da)

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,2	1,3	3,2
Ichimliklar va tamaki	0,2	-	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,6	0,6	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,9	13,0	9,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	15,6	13,9	14,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	63,6	61,0	59,1
Turli xil tayyor buyumlar	9,5	6,4	8,5
Xizmatlar	1,9	3,7	5,0

2021- yil yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, turli xil tayyor buyumlarda 2020- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi 6,4 % dan 8,5 % gacha, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda importining ulushi 1,3 % dan 3,2 % gacha, xizmatlarda esa 3,7 % dan 5,0 % gacha o'sdi.





**NAVOIY VILOYATINING HUDUDLARI BO'YICHA IMPORT HAJMI**  
(2021- yil yanvar-iyun, ming AQSh dollari)

Tuman va shahar nomi	Import hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>385 813,3</b>	<b>123,3</b>
Navoiy sh.	235 629,7	129,8
Zarafshon sh.	6 133,3	156,6
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	116 099,6	133,3
Konimex	844,5	46,2
Qiziltepa	4 519,8	79,4
Navbahor	4 151,9	47,9
Nurota	4 497,7	72,3
Tomdi	2 905,9	299,6 b.
Uchquduq	2 197,6	5,1 b.
Xatirchi	4 275,5	153,1
Bo'linmaydigan hajm	4 557,8	-

2021- yil yanvar-iyun oylarida import hajmi 385,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 123,3 % ni tashkil etdi.




**NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMI**  
(2021- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Import hajmi</b>	<b>385,8</b>	<b>123,3</b>	<b>100,0</b>
MDH davlatlari	122,3	138,2	31,7
Boshqa davlatlar	263,5	117,4	68,3

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich 31,7 va 68,3 % ni tashkil etdi.




**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva, Qozog'iston, Turkiya va Yaponiya davlatlari) jami importning 77,4 % ini tashkil qiladi, bu 298,9 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.



**NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**  
(2021- yil yanvar-iyun, % da)



Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi va Litvadan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasi umumiy import hajmida 21,0 % ulushi bilan AQSh davlatini 18,0 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR  
(yanvar-iyun)**


Davlatlar	Ming AQSh dollari		2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan, % da	O'rni
	2020- y.	2021- y.		
Rossiya Federatsiyasi	54 319,7	81 157,9	149,4	1
AQSh	26 957,1	69 399,0	2,6 b.	2
Xitoy Xalq Respublikasi	58 308,9	48 521,8	83,2	3
Litva	38 107,9	43 135,4	113,2	4
Qozog'iston	23 849,5	22 456,5	94,2	5
Turkiya	15 193,3	19 056,0	125,4	6
Yaponiya	3 024,5	15 206,2	5,0 b.	7
Koreya Respublikasi	36 053,9	15 094,1	41,9	8
Chexiya Respublikasi	4 954,1	13 995,8	2,8 b.	9
Ukraina	9 376,8	12 289,6	131,1	10
Germaniya	14 385,4	8 265,9	57,5	11
Italiya	2 978,0	5 812,6	195,2	12
Belarus Respublikasi	333,3	4 953,5	14,9 b.	13
Eron Islom Respublikasi	1 558,8	4 418,7	2,8 b.	14
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	1 506,3	3 968,6	2,6 b.	15
Kanada	-	3 232,9	-	16
Estoniya	2 333,8	2 552,7	109,4	17
Fransiya	831,8	2 046,6	2,5 b.	18
Indoneziya	1 584,9	1 378,4	87,0	19
Hindiston	2 149,1	1 272,7	59,2	20

2021- yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha 56 ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

2021- yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 19,4 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 5,0 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 169,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi qurilish xizmatlari (70,0 %) va transport xizmatlari (19,7 %) dan iborat bo'ldi.



**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI**  
(2021- yanvar-iyun, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi**

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi**

**Tel.: (99879) 222-04-36**